
Xushbo’y kalina

Ko’cha va xiyobonlarga qishin-yozin o’zgacha tarovat bag’ishlaydigan manzarali butalar, gullar, yam-yashil maysalar kishini e’tiborsiz qoldirmasligi aniq.



Shunday butalardan biri xushbuy kalinadir. Xushbuy kalinaning vatani Xitoyning shimoliy hududlari hisoblanadi. Bu buta qishga chidamli o’simlik bo’lib, respublikamizning quruq-issiq iqlimiga yaxshi moslashgan. Xushbuy kalina barg chiqarmasdan oldin oq va pushti rangda gullaydi, gullash vaqtida ajoyib yoqimli hid taratadi. Uning yoqimli hidi 50 metr masofadan seziladi. Hidi nafaqat insonlarni balki, hasharotlarni ham o’ziga jalb qiladi.



Gullash davomiyligi 25-30 kun. Bo’yi 2,5-3metrgacha, soyaga bardoshli va namlikni xush ko’ruvchi buta. Yoz bo’yi yashil rangda turuvchi barglari kuz faslida qizg’ish tusga kirib ajoyib manzara kasb etadi. Kuzning sovuq kunlarida barg tashlaydi. Tuproqqa talabchan emas. Kesish ya’ni shakl berishga chidamli, o’zini tiklash xususiyati yuqori. Kam hollarda urug’idan, ko’proq qalamchalaridan va parxish qilish yo’li bilan ko’paytiriladi. Chunki O’zbekiston sharoitida bahorgi qor va yomg’ir tufayli urug’ yuqoladi. Qalamchadan ko’paytirish samarali bo’lib, bir yillik novdalar tanlab olinadi va qalamchalar tayyorlanadi. Stimulyatorlar yordamida qisqa muddatda ildiz olib, ko’chat holatiga keladi. Yakka holda va guruh holatida ekish mumkin.



Ayni kunlarda FA Toshkent Botanika bog’ida xushbo’y kalina qiyg’os gul ochib, o’z iforini taratib turibdi.

Kalina bog’ga tashrif buyuruvchilarga o’zining xushbuy hidi va chiroyli gullari bilan yaxshi taassurot qoldirishi shubhasiz. Toshkent Botanika bog’iga albatta tashrif buyuring hamda ushbu go’zallikdan bahra oling!

